

## Mutaxassislikga ilk qadam

Tashabbuskor yoshlar el-yurt kelajagi, ularning ko'ragida yonayotgan o't shunchalik kuchliki bu o'tni yanada alanga oldira olsak bir maqsadga erisha olamiz. Xuddi shunday yoshlardan GM fakul'teti "Daryo va suv omborlari gidrologiyasi" ta'lim yo'nalishi 110-guruxning 8 nafar istedadli talabalari xoxishiga ko'ra institutning Gidrologiya, Gidravlika laboratoriyalari hamda Gidrotexniklar laboratoriyasida joylashgan "To'palang" suv ombori (GES) ning maketi bilan tanishtirildi va suv ombori to'g'risidagi barcha ma'lumotlar talabalar e'tiboriga havola etildi. Tanishuv jarayonida talabalar bilan savol javob o'tkazildi va tanlagan sohalari bo'yicha yetarlicha bilimga ega ekanliklariga guvoh bo'lindi. So'ngi so'z o'rnida talabalarga yaxshi o'qib yetuk mutaxassis bo'lish o'z qo'llarida ekanligi, fanlardan a'lo baxolarga o'qish kerakligi, buning uchun institutda barcha sharoitlar yaratilganligi uqtirildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**